

JALOLIDDIN TABATABOIYNING “SHOHJAHONNOMA” ASARIDA BOBURIYLAR DARVI TARIXINING YORITILISHI

Isobek Xudaynazarov

TDSHU, Markaziy Osiyo xalqlari tarixi kafedrasi katta o'qituvchisi

ANNOTATSIYA

Boburiylar davri manbalari jahon tarixining durdona asarlari hisoblanadi. Mintaqamiz tarixini Yevropa va dunyoning boshqa hududlariga yoyishda ushbu asarlarning o'rni katta. Shunday tarixiy asarlarda biri Jaloliddin Tabataboiyning “Shohjahonnoma” asari hisoblanadi. Ushbu maqolada asarda Boburiylar sulolasi tarixining yoritilishi haqidagi ma'lumotlar tahlil qilinadi.

Kalit so'z: *Tabataboiy, Tarixi Firishta, Majma' ul-bahrayn, Nigarnoma, Devoni xos, Bximsen, Nusxai Dilkusho, Inoyatxon, Podshohnoma.*

A DEPICTION OF THE HISTORY OF THE BABURIDS DYNASTY ON “SHAHJAHAN NAMAH” (CHRONICLE OF SHAH JAHAN) OF JALALIDDIN TABATABOI

Isobek Khudaynazarov

*Senior teacher of the Department of History of Central Asian Folks,
Tashkent State University of Oriental Studies*

ANNOTATION

Sources from the Baburid Empire are considered masterpieces of world history. These works played a significant role in spreading the history of our region to Europe and other regions of the world. One of such historical works is the work "Shahjahan Namah" (Chronicle of Shah Jahan) by Jalaladdin Tabataboi. This article analyzes the information about the coverage of the history of the Baburid dynasty in the work.

Keywords: *Tabataboi, Tarikhi Firishta, Majma' ul-Bahrayn, Nigarnama, Devani Khas, Bhimsen, Nuskhai Dilkusha, Inoyat Khan, Padshahnama.*

ОПИСАНИЕ ИСТОРИИ БАБУРИДОВ В ПРОИЗВЕДЕНИИ ДЖАЛАЛУДИНА ТАБАТАБАИ «ШАХДЖАХАННАМА»

Исобек Худайназаров

Ст. преподаватель кафедры Истории народов

Центральной Азии, ТашГУВ

АННОТАЦИЯ

Источники династии Бабуров считаются шедеврами мировой истории. Эти произведения сыграли значительную роль в распространении истории нашего региона в Европе и других регионах мира. Одним из таких исторических трудов является произведение «Шахджаханнома» Джалолиддина Табатабаи. В данной статье анализируется информация об освещении истории династии Бабуров в этом произведении.

Ключевые слова: Табатабаи, Тарихи Фирита, Маджма уль-Бахрайн, Нигарнома, Девони Хос, Бхимсен, Нускаи Дилкуша, Иноят Хан, Падшахнома.

KIRISH

Hindistonda “Boburiylar sulolasi” iborasi tarix kitoblariga kiritildi, ammo, o’sha davr manbalarida sulola vakillari temuriylar avlodi sifatida ko’rsatilgan, “Boburiylar” nisbatan yangi atama va bu ayrim zamonaviy xorijiy tadqiqotlarda mavjud. Masalan, sulola tarixini, Eronda hali ham tarixchilar “Hindistonda Temuriylar sulolasi davri” deb atashadi. Boburiylar davri manbalari jahon tarixining durdona asarlari hisoblanadi. Mintaqamiz tarixini Yevropa va dunyoning boshqa hududlariga yoyishda ushbu asarlarning o’rni katta. Bular qatoriga “Boburnoma”dan tashqari, mashhur tarixchi G’iyosiddin Xondamirning “Qonuni Humoyun” va Gulbadanbегinning “Humoyunnoma”, Abulfazl Allomiyning “Akbarнома”, “Oyini Akbariy”, “Ruqoati Akbari”, Xo’ja Nizomiddin Ahmadning “Taboqati Akbariy”, Abdulqodir Badauniyning “Muntahab ut-tavorix”, Inoyatullohning “Takmili Akbarнома”, Muhammad Qosim Hindushohning “Tarixi Firishta”, Muhammadamin Qazviyning “Anfauli Akbar”, Mutamidxon Mirbaxshining “Tuzuki Jahongiriy” va “Iqbolнома”, Muhammad Hodiyning “Ta’timma voqeati Jahongiriy”, Xo’ja Kamgor G’ayratxonning “Ma’asiri Jahongiriy”, Muhammad Sodiqxonning “Shohjahonнома”, Abdulhamid Lahuriyning “Podshohnoma¹”, Muhammadamin Qazviniyning “Podshohnoma”, Inoyatxonning “Shohjahonнома”, Muhammad Kanbuning “Amali

¹ Юсупова Д.Ю., Джалилава Р.П. Собрание Восточных рукописей Академии Наук РУ (Институт востоковедения им. Абу Райхана Беруни) Том-I, “Фан” Т., 1998. Редактор А.Урунбаев –С. 537. (286-287 ст.)

Solih”, Muhammad Vorisning “Podshohnoma” Jaloliddin Tabataboiyning “Shohjahonnoma”, Doro Shukuhning “Majma’ ul-bahrayn”, Mirzo Muhammad Qosimning “Olamgirnoma”, Oqilxon Roziyning “Zafarnomai Olamgiri”, Muhammad Soqi Musta’idxonning “Ma’asari Olamgiri”, Bximsenning “Nusxai Dilkusho”, Muhammad Hoshim Hofiyxonning “Tarixi Xavofiyxon” yoxud, “Muntahab ul-lubob”, Sujan Ray Xattiriyning “Xulosat ut-tavorix” kabi asarlarini kiritib, ularning Yevropa kutubxonalari va hukmdor sulola kolleksiyalaridan joy olganligi buni tasdiqlaydi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Ushbu mavzuni yoritishda o’sha davr manbalari bo’lgan, 2009 yilda Nyu-Dehlida manba tiliforschada nashr qilingan Jalaliddin Tabataboiy Ardestoniyning “Shahjahonnoma” asari, o’rta asr tarixchisi Muhammad Tohir Inoyatxonning 1990 yilda Oksfordda ingliz tilida (Begley W.E., Desai Z.A.) nashr qilingan “Shahjahonnoma” asarlaridan unumli foydalanildi. Metodologik jihatdan asarlar mazmuni va unda keltirilgan ma’lumotlar tahlili, tarixiylik, voqyealarning tadrijiyligi, manbalar bilan asoslanganlik usullaridan foydalanildi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Boburiylar tarixini yoritishda tadqiqotchi manbalarning ko’pligi va xilma-xilligidan qiynalishi, ayni damda solishtirma qiyosiy tahlil orqali batafsil o’rganish imkoni mavjud. Shunday asarlardan biri shubhasiz Shoh Jahon hukmronligi davri durdonasi Jaloliddin Tabataboiy Zavareh Ardestoniyning “Shohjahonnoma”sidir. Hukmronligining dastlabki yillari Shoh Jahon “Akbarнома” muallifi Abulfazl Allomiy darajasida tarix bitish ya’ni, ham nazmiy, ham nasriy bayonda mohir muarrixni topishga farmon beradi. Natijada, Jaloliddin Tabataboiy Erondan saroyga taklif etiladi². Tarixshunoslik Akbarshoh davrida kamolotga erishdi, Jahongir davrida gullab-yashnagan va Shoh Jahon hukmronligi davrida yanada katta yutuqlarga erishdi. Shoh Jahon davrida (1628-1658) tarixchilarning salmoqli qismiga alohida e’tibor berilgan. Shoh Jahonning tarixshunoslik ilmiga alohida qiziqish va e’tibori soyasida Muhammad Amin Qazvinii, Mirzo Muhammad Jaloliddin Tabataboiy, Abdulhamid Lahuriy, Muhammad Voris Lahoriy, Shayx Inoyatulloh Lahoriy, Shayx Muhammad Solih Kanbu kabi qobiliyatli tarixchi va adiblar o’zining qimmatli asarlarini yaratdilar. Shoh Jahon ham Akbarshoh singari tarixiy asarlarni turli tillardan fors tiliga tarjima qilishni qo’llab-quvvatlashga intilgan. Uning hukmronligi davrida Abu Tolib Husayniy, Muhammad Afzal Buxoriy kabi olimlar Amir Temur Sohibqironning tarjimai holini turk tilidan fors tiliga tarjima qilganlar. Shuningdek, Shayx Jalol Hisoriy kabi yozuvchi “Gvaliornome” tarixiy asarini sanskrit tilidan fors

²Jalaladdin Tabatabai. Shahjahan Namah (in persian). Alpha Art. New-Delhi, 2009, P.8.

tiliga tarjima qilgan. Shoh Jahonning tarixshunoslikka alohida e'tibor qaratganining yana bir yaqqol dalili – rasmiy saroy tarixchiligiga bir necha kishi tayinlanganida ko'rinadi. Bu kishilardan biri Mirzo Muhammad Jaloliddin Tabataboiy. U hijriy 1044 (1635) yilda Hindistonga kelib, Shoh Jahon saroyida xizmatga olingan³.

Mirzo Jaloliddin nasrning yetuk ustalaridan edi, u Muhammad Amin Qazviniyning yozuv uslubiga amal qilib, Shoh Jahon saltanatining birinchi o'n yilligi ikkinchi yarmidagi voqealar tarixini beshinchi yil boshidan, ya'ni hijriy 1042 yil, podshoh taxtga chiqqanining sakkizinchi yili oxirigacha (1045 hijriy) yozgan⁴. Albatta, Shoh Jahonning umidlari Muhammad Amin Qazviniy va Jaloliddin Tabataboiy qalamlari imkoniyatlaridan tashqarida edi. Jaloliddin Tabataboiyning ijodi Muhammad Solih Kanbu tomonidan maqtovg'a sazovor bo'libgina qolmay, balki, uning aksar ma'lumotlarini o'z asariga kiritgan.

Shubhasiz, Muhammad Solih Kanbu ham Shoh Jahon davri tarixini bitgan yirik tarixchi olim, o'zining "Amali Solihi" asari 436-betida shunday yozadi: "*Mirzo Jaloliddin Tabataboiy Yazdiy nasrda ustunlik qiladi, yetkazib berishda yangi uslublar yaratadi, nutqqa yangi hayot baxsh etadi, falsafiy tafakkurda esa o'zidan oldingi ilmlarni qo'llaydi va ilm-fanda yuksak darajaga erishgan.*" deb xulosa beradi. Muhammad Solih Jaloliddin Tabataboiyning Yazdiy deb ta'riflagan, shuning uchun biz uning asarida Yazdga yaqin shahar nomidan nisba Ardestoniy nomini uchratamiz. Hijriy 1050 (1641 yil) yilda Shoh Jahon bilan Kashmirga hamroh bo'lgan Jaloliddin Tabataboiy o'sha hududning hosilini Eronnikiga qiyoslagan.

U tarixni bitishdan ko'ra, shohni madh etishga ko'proq kuch bag'ishlagan, jumlarini murakkab va qofiyali iboralar bilan bezagan, o'z asariga "Nigarnoma", "Nigarinnoma" - deb nom bergan. Shu o'rinda shuni ta'kidlash joizki, u kitob matnining hech bir joyida "Podshohnoma" yoki, "Shohjahonnoma" sifatidagi asarini tilga olmagan. Asarda aytilishacha, Shoh Jahon musiqa san'atiga juda qiziqqan va Muhammad Solih Kanbu bu mavzuda shunday yozgan:

...Ushbu xayrli yig'indan ko'zlangan maqsad esa, gohida shod va ma'rifatli tinglovchiga aylanib, shu ezgu tuyg'udan bahramand bo'lish, hind xonandalari va iroqlik sozandalarning go'zal ohanglarini tinglab, bilimni boyitishdir. Boburiylar Hindistonda o'z hukmronligini o'rnatgach, mahalliy hukmdorlar, ayniqsa, rajputlar nomi bilan mashhur bo'lgan qabila va urug'larning rojalari bilan yaxshi munosabatlar o'rnatishdi. Shuning uchun ular shahzodalarni rajput malikalariga uylantirishdi. Bu malikalar saroylarda o'z madaniyati bilan yashagan va shu sababli bu hukmdorlar hind madaniyati ta'sirida bo'lib, islom diniga zid bo'lmagan ba'zi urf-odat va

³ Jalaladdin Tabatabai. Shahjahan Namah (in persian). Alpha Art. New-Delhi, 2009, P.9.

⁴ O'sha asar, -B.10.

an'analarni o'rnatgan. Ular orasida *“Shohzoda va podshohlarning tarozi festivali bo'lib, har yili podshoh yoki shahzodaning tug'ilgan kuni munosabati bilan uni qamariy va quyosh sanalari bo'yicha tarozida tortishar edi*⁵.

Jaloliddin Tabataboiy asarida ayrim bo'limlarning nomlanishi:

- Muborak kunlardagi voqealardan, oktabr oyining oxiri
- Ushbu xayrli vaqtning 11 ta voqeasi
- Shon-sharaf va qadr-qimmatga ega podshohlik muhitining durdonasi, ya'ni, nikoh marosimi va nikoh marosimidagi shahzoda Parvizning inoyati
- Xudoning marhamati shon-shuhratiga ega bo'lgan omadli yigit, Iqbol Sulton
- Shahanshoh Balx hokimi Nodir Muhammadxonga Aseman Jahdan elchi Vaqqos Hoji hamrohligida xat va elchilik yuborishi
- Bu abadiy hukumat voqealarining xabarchisi va xulosasi
- Baxt yulduzi, Sohibqironiy Soniyga hamroh olijanob Axtar shahzodasi
- Safaviylar bu ikki notanish odam o'rtasida diniy nikoh shartnomasini tuzgandan so'ng, noyob nikohning mohiyati
- Navro'zning boshlanishi, Humoyun yili, muborak asrlarning oltinchisi, abadiy yuksalish tarixidan son-sanoqsiz davrlarning birinchi davri
- Mast filning hushyor shahzodaga hujumi, taxtining porloq ko'zi Sulton Avrangzeb Bahodur va abadiy davlatning ba'zi voqealari.
- Davlatobod to'g'onining zabt etilishi
- Shu kunlardagi baxtsiz hodisalardan
- Abadiy davlatning eng ko'zga ko'ringan 36 ta hodisasi
- Abadiy davom etuvchi davlat voqealarining hikoyasi, uning oxiri bu poklik va hashamat maskanidagi shon-sharaf
- Poytaxt Lahorga va davlatning boshqa sarguzashtlariga shon-sharaflar bo'lsin...
- Firdus Farxund majlisining bezagi, Sohibqironiy soniyning osmonga ko'tarilishi va abadiy davlat ahliga mag'firat va kechirim eshiklarini ochish marosimi
- Yaramas Sanga Bandile va o'sha yovuz shaytonning o'g'li Bikra Majitning qo'zg'oloni haqidagi hikoya.

Bu jihatlar asarda keltirilgan ma'lumotlarni yaxshi tasavvur qilish imkonini beradi. Yuqorida keltirilgan kichik bo'lim nomlaridan ko'rinib turidiki, Jaloliddin Tabataboiyning *“Shohjahonnoma”*si mubolag'a va she'riy o'xshatishlarga boy va bu holat nisbatan oshirib yuborilganligi sababli hukmdor Shoh Jahonga yoqmagan ko'rinadi. Shuning uchun muarrixning ishini davom ettirish boshqa bir tarixchi Abdulhamid Lahuriyga topshirilgani kuzatiladi.

XULOSA

⁵ Jalaladdin Tabatabai. Shahjahan Namah (in persian). Alpha Art. New-Delhi, 2009, P.13.

Birinchiidan, Jaloliddin Tabataboiyning “Shohjahonnoma”si Shoh Jahon hukmronligining dastlabki yillarini yoritsada, nazmiy bayon va mubolagʻalarga boyligi, ayrim voqealarni nozik adabiy bezaklar orqali tasvirlashi bilan oʻziga xos ahamiyatga ega.

Ikkinchiidan, Jaloliddin Tabataboiyning “Shohjahonnoma”sida Safaviylar saroyi tarixchiligi anʼanalari taʼsiri oshib ketgani, ayrim soʻzlarni qoʻllashda va vaqtni koʻrsatishda Eronda foydalanilgan oy va yil nomlari berilgani kuzatiladi.

Uchinchiidan, asarda diniy voqea va marosimlarni tasvirlashda eronliklarga xos odatlar, diniy ulamolar va ularning merosini targʻib qilish va kiritib oʻtish holatlari uchraydi, bilishimizcha saroy ayonlariga bu jihatlar ham unchalik maʼqul kelmagan.

Toʻrtinchiidan, Boburiylar saltanati hududida sodir boʻlgan voqea-hodisalar, kundalik hayotda kuzatilgan urf-odatlar va aholi turmush tarziga oid maʼlumotlarning Erondagi hayot bilan solishtirish holatlari ham podshohga maʼqul kelmagan va Tabataboiy taklif etilganiga qaramay qisqa muddatda uning faoliyati toʻxtatilgan. Yuqoridagilarga qaramay asar bizga Boburiylar saltanati siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy hayotidan koʻplab qiziqarli maʼlumotlar taqdim etadi.

FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR ROʻYXATI (REFERENCES):

1. Болтабоев Х. Хорижий Бобуршунослик саҳифалари. Т., 2009, -Б. 290.
2. Begley W.E., Desai Z.A. The Shah Jahan Nama of ‘Inayat Khan. Delhi: Oxford University Press, Oxford-New-York, 1990. 624 pp. (Translation of A.R. Fuller British Library, Add.30777)
3. Госкойн Бембер. Великие Монголы. (Потомки Темирлана). “Центр полиграф” М. Пер. с англ. Л.Лебедова, 2003. –С. 114.
4. Ebba Koch, Milo C.Beach, Wheeler M.Thackston, The King of the World: The Padshahnama : An Imperial Mughal Manuscript from the Royal Library, Windsor Castle, London, 1997, P. 270.
5. Hamid Afaq Qureshi Al-Taimi Al-Siddiqi, Ishrat Husain Ansari. Badshahnamah of Muhammad Waris. Idarah-i Adabiyat-i Delli, 2017, 368p.
6. Jalaladdin Tabatabai Ardestani. Shahjahan Namah (in persian). Alpha Art. New-Delhi, 2009, 456p.
7. John Richards. Mughal_Empire (The New Cambridge History of India) London. 2001. P. 335.
8. Muhammad Woris. Ahvoli-Shahzodai Shohjahon va Podshohnamai daftari avval. (fors tilida). Shohjahonobod, 1680. 477b.

9. Юсупова Д.Ю, Джалилава Р.П. Собрание Восточных рукописей Академии Наук РУ (Институт востоковедения им. Абу Райхана Беруни) Том-I, “Фан” Т., 1998. Редактор А.Урунбаев –С. 537. (286-287 ст.)
10. Bakhtiyorovich, S. J. (2023). Analysis of the Phenomenon of" Assabiya" In the Socio-Philosophical Concept of Abdurahman IBN Khaldun. *Central Asian Journal of Literature, Philosophy and Culture*, 4(6), 219-223.
11. Bakhtiyorovich, S. J. (2023). Interpretation of the Approaches to the Concept of the State in the Ethical Views of Abu Zayd Abdurahman Ibn Khaldun. *Central Asian Journal of Social Sciences and History*, 4(6), 161-164.
12. Sulaymonov, J. (2024). “MUQADDIMA” ASARINING ABUZAYD ABDURAHMON IBN XALDUN IJTIMOIIY FALSAFIY TA’LIMOTIDAGI O’RNI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 4(5), 964-972.
13. Сулаймонов, Ж. Б. “АСАБИЙЙА”–АБДУРАХМОН ИБН ХАЛДУН ИЖТИМОИЙ-ФАЛСАФИЙ КОНЦЕПЦИЯСИНИНГ АСОСИЙ КАТЕГОРИЯЛАРИДАН БИРИ СИФАТИДА.
14. Sulaymonov, J. (2024). ABUZAYD ABDURAHMON IBN XALDUN IJTIMOIIY FALSAFIY MEROSINING YO’NALISHLARI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 4(21), 653-661.
15. Sulaymonov, J. (2024). IBN XALDUN MA’NAVIY MEROSIGA DOIR MULOHAZALAR. *International scientific journal of Biruni*, 3(1), 102-110.
16. Sulaymonov, J. (2024). “MUQADDIMA” ABUZAYD ABDURAHMON IBN XALDUN IJTIMOIIY FALSAFIY MEROSINING ASOSIY MANBASI SIFATIDA. *Academic research in educational sciences*, 5(5), 759-767.